O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI
DEHQONOBOD TUMAN HOKIMINING
Q A R O R I

Manzil: Dehqonobod tumani.Qorashina shaharchasi M.Ulug‘bek ko‘chasi indeks: 180400 tel-faks: (75) 612-13-31

2021 - yil 30 - sentabr 438-4-57-Q/21 Dehqonobod tuman hokimligi

Dehqonobod tumani hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 24 dekabrdagi 370-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati Qoidalari” talablariga asosan Dehqonobod tumani hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha profilaktik-ogohlantirish va og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan keng ko‘lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasi ijrosini ta’minlash maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Dehqonobod tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili ilovaga asosan tasdiqlansin hamda mazkur yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

2. Dehqonobod tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i G‘.Xaydarov, tuman ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i B.Nazarov va tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi direktori B.Murodovga tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti

hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilarini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3. Mazkur qaror “Dehqonobod ovozi” gazetasida e’lon qilinsin hamda hokimlikning dehqonobodtuman.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

4. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari SH.Ergashev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Aliqulov.Z.X**

Деҳқонобод туман ҳокимининг
2021 йил 30 сентябрдаги
438-4-57-Q/21-сон қарорига
1-илова

Tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili

RO‘YXATI

№	Yo‘l belgisi o‘rnatilgan manzil nomi	Yo‘l belgisini nomi
1.	4k 336 "M-39 a/yo‘li - Tog‘aytemir q. - Qo‘rg‘ontosh q. - Xo‘jaipok q." Avtomobil yo’lining 0-kilometri, Dehqonobod tuman IIB YXXB binosi oldida	3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”
2.	4k 301a "Qizilcha qishlog‘iga kirish" 0-km, DKZ binosi oldida.	3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”